Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhitovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING MEHNAT BOZORI KONYUKTURASIGA TA'SIRI

Fayzullayev Nurulla Baxromovich

Ranch Urganch texnologiya universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, PhD

Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayonlarining O'zbekiston mehnat bozoriga ta'siri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun'iy intellekt va robototexnikaning joriy etilishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talab tarkibida yuzaga kelgan o'zgarishlar atroflicha o'rganilgan, hamda O'zbekistondagi raqamli o'sish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning mehnat bozoridagi raqamli transformatsiya jarayonlari solishtirma tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot, AKT, sun'iy intellekt, ish o'rinlari, kadrlar malakasi, raqamli savodxonlik, masofaviy bandlik, telebandlik, frilans, raqamli infratuzilma, malakali ishchi kuchi.

Abstract: This article examines the impact of digital transformation processes on Uzbekistan's labor market, focusing on changes in labor demand caused by the integration of information and communication technologies (ICT), artificial intelligence (AI), and robotics. It also analyzes the trends of digital growth in Uzbekistan. Furthermore, a comparative analysis is conducted with developed countries to assess the effects of digital transformation on their labor markets.

Key words: digital transformation, labor market, digital economy, ICT, artificial intelligence, employment, workforce skills, digital literacy, remote employment, teleworking, freelancing, digital infrastructure, skilled labor.

Аннотация: В данной статье всесторонне изучено влияние процессов цифровой трансформации на рынок труда Узбекистана, изменения в структуре спроса на рабочую силу в результате внедрения информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), искусственного интеллекта и робототехники, а также проанализированы тенденции цифрового роста в Узбекистане. Также проведен сравнительный анализ процессов цифровой трансформации на рынке труда развитых стран.

Ключевые слова: цифровая трансформация, рынок труда, цифровая экономика, ИКТ, искусственный интеллект, рабочие места, квалификация кадров, цифровая грамотность, удаленная занятость, телезанятость, фриланс, цифровая инфраструктура, квалифицированная рабочая сила.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda raqamli texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanib, iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqur singib bormoqda. Ushbu holat "To'rtinchi sanoat inqilobi" (Industry 4.0) deb ataluvchi jarayonning tarkibiy qismi bo'lib, ishlab chiqarishdan tortib, xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan ko'plab jabhalarda mehnat bozorini tubdan o'zgartirmoqda.

Xususan, sun'iy intellekt (AI), robototexnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) joriy etilishi natijasida ayrim an'anaviy kasblar yo'qolib bormoqda, shu bilan birga butunlay yangi mutaxassisliklar va ish o'rinlari paydo bo'layotgani kuzatilmoqda. Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar 2025-yilgacha raqamli texnologiyalar hisobiga yaratiladigan qo'shimcha ish o'rinlari yo'qoladigan ish o'rinlaridan ustun kelishini ko'rsatmoqda. Ya'ni, raqamli transformatsiya tufayli global miqyosda 12 millionga ko'p ish o'ri yaratilishi mumkinligi prognoz qilinmoqda [1].

Biroq boshqa prognozlarga ko'ra, yaqin besh yil ichida (2023-2027-yillar) 69 millionta yangi ish o'ri yaratilishi, ayni vaqtda esa 83 millionta ish o'ri qisqarishi kutilmoqda. Bu esa global mehnat bozorida qariyb 14 millionta sof ish o'ri yo'qotilishi xavfini anglatadi [2]. Demak, raqamli texnologiyalar davrida mehnat bozori dinamik ravishda o'zgarib, bir vaqtning o'zida yangi imkoniyatlar hamda jiddiy chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.



Kulosa qilib aytganda, mavzuning dolzarbligi shundaki, raqamli texnologiyalar asrida mehnat bozori tarkibiy o'zgarishlar yoqasida turibdi. O'zbekiston uchun bu jarayon yangi imkoniyatlar-yuqori malakali ish o'rinlari, IT xizmatlari eksporti, ishlab chiqarishda unumdorlikning oshishi-manbai bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, agar raqamli transformatsiyaga puxta tayyorgarlik ko'rilmasa, raqamli tafovut chuqurlashib, malakasiz ishchi kuchining ishsiz qolishi kabi xavf-xatarlar yuzaga kelishi mumkin. Aynan shu sababli, O'zbekiston mehnat bozorini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalasi bugungi kunda nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya global miqyosda iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, mehnat bozorida yuz berayotgan texnologik o'zgarishlar ishchi kuchi oldiga yangi talablarga moslash muammosini qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, so'nggi besh yil ichida chop etilgan ilmiy adabiyotlarda ushbu masalaning turli jihatlarini keng yoritilgan.

2020-yilda V. Bahridinov tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri o'rganilib, ayniqsa yangi raqamli kasblarning paydo bo'lishi va mavjud ish o'rinlarining transformatsiyasi bo'yicha tahliliy mulohazalar bildirilgan [3].

N. Mustafayev o'z ilmiy ishida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini tahlil qilgan hamda bu jarayonda mehnat resurslarini tayyorlash tizimini zamonaviylashtirish zarurligini alohida ta'kidlagan [4].

2022-yilda I. Xodjayev tomonidan e'lon qilingan ilmiy maqolada raqamli texnologiyalarni mehnat bozorida qo'llash samaradorligi o'rganilgan bo'lib, unda raqamli ko'nikmalar darajasining ishga joylashish imkoniyatlariga bevosita ta'siri ilmiy asosda yoritilgan [5].

J. Husanov va A. Davlatovning 2020-yilgi tadqiqotida mehnat bozorida shakllanayotgan yangi formatlar-masofaviy ish, onlayn platformalarda faoliyat yuritish kabi yo'nalishlar tahlil qilingan hamda ularning mehnat resurslari uchun yangi imkoniyatlar ochib berishi ta'kidlangan [6].

F. Bazarov O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi asosiy muammolar va mavjud imkoniyatlarni tahlil qilgan. Ayniqsa, hududiy tengsizliklar va malaka darajasidagi tafovutlar muammosiga e'tibor qaratilgan [7].

R. Shodiyev o'z tadqiqotida raqamli ko'nikmalar bilan mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil etgan. Muallif ishchi kuchining zamonaviy texnologiyalarga tayyor emasligi muammosini dolzarb deb biladi [8].

S. Akhmedov raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimidagi islohotlarni o'rganib, ularni ishchi kuchi sifatini oshirish vositasi sifatida baholagan [9].

T. Soliyev va M. Ergashev raqamli ta'lim tizimi bilan mehnat bozori talablari o'rtasidagi uyg'unlikni tahlil qilgan hamda ularni muvofiqlashtirish zarurligini ilmiy asosda isbotlagan [10].

2020-yilda U. Rakhmonov tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning bandlik tizimiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Unda yangi ish shakllari-masofaviy ish, onlayn xizmatlar va frilans faoliyatining rivojlanish holati aks ettirilgan [11].

Z. Jumayev tomonidan yozilgan eng so'nggi ishlardan biri mehnat resurslarini raqamli iqtisodiyotga tayyorlash masalasiga bag'ishlangan. U qayta tayyorlash, malaka oshirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish zaruratiga alohida e'tibor qaratgan [12].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mehnat resurslarini raqamli transformatsiyaga moslashtirish zamonaviy dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu jarayon davlat siyosati, ta'lim tizimi va ishchi kuchining o'zini rivojlantirishga tayyorligi bilan bevosita bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston mehnat bozorida raqamli transformatsiya jarayonlarini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni solishtirma tahlil qilish usuli qo'llanildi. Ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hisobotlari, shuningdek, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon iqtisodiy forumi (WEF), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) kabi xalqaro tashkilotlarning tegishli ma'ruzalarida keltirilgan statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Xususan, O'zbekistonda AKT sohasidagi bandlik holati, raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi, internet infratuzilmasining rivojlanish darajasi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Shuningdek, AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya va Xitoy kabi raqamli texnologiyalar jadal rivojlangan davlatlarning mehnat bozori tajribalarini o'rganish maqsadida ushbu mamlakatlarga oid ilmiy maqolalar, rasmiy



hisobotlar va ochiq ma'lumotlar bazalari chuqur tahlil etildi. Bu mamlakatlarda raqamli texnologiyalarning bandlikka ta'siri, yangi ish o'rinlari yaratish hamda kadrlar malakasini oshirish borasidagi siyosatlarga alohida e'tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston mehnat bozorida raqamli transformatsiya tendensiyalari. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning ayrim sektorlarida bandlik va ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata boshlagan. Avvalo, bu holatni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori misolida ko'rish mumkin. So'nggi yillarda AKT sohasida band bo'lgan xodimlar soni muntazam ortib bormoqda. Agar 2020-yilda bu ko'rsatkich 62 200 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda u 87 800 nafarga yetdi [13]. Ya'ni, atigi uch yil ichida AKT sohasidagi ishchi kuchi qariyb 40 foizga o'sdi. Bu esa 25 mingga yaqin yangi ish o'rnining yaratilganini anglatadi. Quyidagi 1-jadvalda O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot va mehnat bozoriga oid ayrim asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval. O'zbekistonning raqamli transformatsiya bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari¹ [13], [14], [15]

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2020 yil	2023 yil
Raqamli iqtisodiyot YAIM ulushi (%)	~1 %	2 %	— (2023 yil uchun rasmiy ma'lumot yo'q, lekin 2020 yildan keyin oshish tendensiyasi davom etmoqda)
AKT sohasida bandlik (kishi)	53 000 †	62 200	87 800
Aholining internetdan foydalanishi (%)	46 %	71 %	89 %
Aholining raqamli ko'nikmalari: asosiy raqamli savodxonlik darajasi (%)	—	20 % (2018)	—
Aholining raqamli ko'nikmalari: standart (murakkab) AKT ko'nikmalari (%)	—	7 % (2018)	—
AKT xizmatlari eksporti (yillik)	—	—	\$344 mln. (2023)

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti endigina shakllanayotgan bo'lsa-da, uning bandlik va iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hisyasi yil sayin ortib bormoqda.

AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) sektorining yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi 2020-yilda atigi 2 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa-da, hukumat tomonidan belgilangan strategik maqsadlarga erishish yo'lida izchil o'sish kuzatilmoqda [14]. AKT sohasida band bo'lganlar umumiy ishchi kuchining taxminan 0,7 foizini tashkil etsa-da, ushbu sektorning o'sish sur'ati nihoyatda yuqori. 2010-2023-yillar oralig'ida AKT sohasidagi bandlik 65 foizdan ko'proqqa oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari orasida eng yuqori o'sish sur'atlaridan biri sifatida qayd etilgan [13].

Bunday tezkor o'sish, bir tomondan, yoshlar orasida IT kasblariga qiziqish ortib borayotgani, ikkinchi tomondan esa "One Million Uzbek Coders" kabi keng ko'lamlı bepul ta'lim loyihalari orqali kodlash bo'yicha ommaviy bilim berish dasturlari amalga oshirilgani bilan bog'liqdir. Masalan, mamlakat bo'yicha 21 ta universitet va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi AKT sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlamoqda. IT ta'lim tizimining kengayishi natijasida malakali mutaxassislar soni izchil ortmoqda [13]. Shu bilan birga, AKT sohasida gender nomutanosibligi ham kuzatilmoqda: ushbu sohada ayollar ulushi atigi 11 foizni tashkil qilmoqda [13]. IT-Park va uning rezident kompaniyalari faoliyati misolida, mamlakatda IT xizmatlari eksporti 2022-2023-yillar davomida


¹ /Zoh: "†" belgisi bilan ko'rsatilgan 2015-yilgi AKT bandlik ma'lumotlari 2010–2023-yillardagi 65,4 foizlik o'sishdan kelib chiqqan holda taxminiy hisoblangan. 2020-yil va 2018-yil raqamli ko'nikmalar ko'rsatkichi OECD hisobotidan olingan. 2023-yil AKT eksporti ma'lumoti 2024-yil III choragigacha IT-Park rezidentlari eksportidan iborat.



140 million AQSh dollaridan 344 million AQSh dollarigacha oshgani qayd etilgan. Bu esa AKT sektorining eksport salohiyati yuksalayotgani va mehnat bozorida yuqori malakali hamda yuqori maoshli ish o'rinlari soni ortib borayotganini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya O'zbekistonda nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), balki sanoat va xizmatlar sektorlariga ham izchil singib bormoqda. Xususan, sanoat sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Yirik sanoat korxonalarida avtomatlashtirish elementlari paydo bo'lmoqda. Ba'zi zavodlarda robotlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari o'rnatilayotgani, raqamli nazorat tizimlari va "Narsalarning interneti" (IoT) texnologiyalari tatbiq etilayotgani kuzatilmoqda. To'g'ri, hozircha O'zbekiston sanoatida robotlashtirish darajasi cheklangan bo'lib, u xalqaro miqyosdagi ko'rsatkichlarga nisbatan ancha past darajada. Masalan, Janubiy Koreyada sanoat korxonalarida har 10 ming nafar ishchiga 1012 ta sanoat roboti to'g'ri kelsa, Germaniyada bu ko'rsatkich 415 tani, Xitoyda esa 392 tani tashkil etadi [16]. AQShda yuqori darajadagi sanoat avtomatlashtirilgan bo'lishiga qaramay, har 10 ming ishchiga 285 ta robot to'g'ri keladi.

O'zbekistonda esa hozircha bunday rasmiy statistika shakllanmagan. Shu bilan birga, robototexnika texnologiyalarining joriy qilinishi asosan tajriba-sinov loyihalari doirasida, sanoatning ilg'or korxonalaridagina kuzatilmoqda



1-rasm. 2022-yil Sanoatda robotlashtirish darajasi bo'yicha yetakchi davlatlar ²

1-rasmda qaraydigan bo'lsak, 2022-yilda ayrim mamlakatlarda har 10 ming nafar ishlab chiqarish sohasi xodimiga to'g'ri keluvchi sanoat robotlari soni tasvirlangan. Janubiy Koreya dunyoda yetakchi bo'lib, har 10 ming ishchiga 1012 ta robot to'g'ri keladi. Undan keyingi o'rinlarda Singapur (730 ta), Germaniya (415 ta), Yaponiya (397 ta) va Xitoy (392 ta) joylashgan. AQSh esa ushbu reytingda 285 ta robot bilan o'ninchi o'rinni egallagan [16]. Bunday yuqori robotlashtirish ko'rsatkichlari ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarish jarayonlarining raqamli texnologiyalar yordamida modernizatsiya qilinganini yaqqol ifodalaydi.

Yuqoridagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, ilg'or xorijiy davlatlarda sanoatning raqamli transformatsiyasi juda yuqori darajada amalga oshirilmoqda. O'zbekiston sanoatida kelgusida raqamli texnologiyalarni joriy etish sur'ati jadallashsa, bu mehnat bozoriga ikki asosiy yo'nalishda ta'sir ko'rsatishi mumkin:

Past malakali va jismoniy mehnat talab qiladigan ba'zi ish o'rinlarining qisqarishi ehtimoldan xoli emas. Masalan, avtomatlashtirilgan konveyerlar natijasida qo'lda bajariladigan operatsiyalar qisqarishi mumkin.

Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari va professional rollar vujudga keladi. Jumladan, robotlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi muhandislar, dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilar, sanoat tizimlari integratorlari kabi yuqori malakali mutaxassislar mehnat bozorida katta talabga ega bo'lib boradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda sanoat sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish hozircha boshlang'ich bosqichda bo'lsa-da, yaqin yillarda bu jarayon sezilarli sur'atda tezlashishi kutilmoqda.

² International Federation of Robotics. Global Robotics Race: Korea, Singapore and Germany in the Lead. Press-reliz, IFR, Frankfurt. <https://www.ifr.org>



Bu esa mehnat bozorida malaka talablarining o'zgarishi va ishchi kuchini qayta tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:


O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot hajmi hozircha kichik bo'lsa-da, u barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini yaratmoqda.

AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) sohasining tez sur'atlarda rivojlanishi bu sohada yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Natijada, mehnat bozorida AKT ko'nikmalariga ega ishchi kuchi yetishmasligi kuzatilmogda. Jumladan, 2021-yilda IT kompaniyalarining 62 foizi malakali mutaxassis topish qiyinligini bildirgan [13].

Sanoat va xizmatlar tarmoqlarida raqamli texnologiyalar asta-sekin ishlab chiqarish jarayonlariga hamda xizmat ko'rsatish modellari tarkibiga integratsiyalashmogda. Bu esa kelgusida ayrim an'anaviy kasblarning transformatsiyalanishiga yoki yo'qolib ketishiga, shu bilan birga yangi kasblar va professional yo'nalishlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Mamlakatda raqamli infratuzilma va internetga kirish imkoniyatlari kengaygani sari, hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish, shuningdek aholining raqamli savodxonligini oshirish masalalari dolzarb bo'lib qolmogda. Chunki raqamli ko'nikmalarning past darajasi xususiy sektorda raqamli texnologiyalarni joriy etish sur'atlarini sekinlashtirmogda. Aholining atigi 20 foizi asosiy, 7 foizi esa murakkab AKT ko'nikmalariga ega ekani kuzatilgan [14].

Yuqoridagi natijalar tahlili asosida endi O'zbekiston mehnat bozorini raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirish borasida mavjud muammolar va imkoniyatlar, shuningdek ilg'or xorijiy tajribadan olinishi mumkin bo'lgan jihatlar muhokama qilinadi. AKT sohasidagi bandlik va malaka muammosi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar sohasida ish o'rinlari tezkor sur'atlarda yaratilmogda, biroq ushbu ish o'rinlarini egallash uchun zarur bo'lgan raqamli ko'nikmalar va malaka yetishmovchiligi muammo bo'lib qolmogda. AKT sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar malakali dasturchilar, muhandislar, tizim administratorlari kabi mutaxassislarni topishda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmogda. Ushbu holat aslida global tendensiyaga hamohangdir. Masalan, AQSh mehnat bozorida ham malakali IT-mutaxassislarga talab doimiy ravishda yuqori bo'lib, ularni tayyorlash tizimi doimiy yangilanishni talab qilmogda [17]. AQShda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yilliklar davomida aksar kasblarda raqamli ko'nikmalarga bo'lgan talab sezilarli darajada ortgan. Masalan, 2002-yilda AQShdagi ishlarning atigi 5 foizi yuqori darajadagi raqamli ko'nikmalarni talab qilgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 23 foizga yetgan [17].



2-rasm. AQSH da Raqamli iqtisodiyot ulushining o'sishi, %³

3 Bureau of Economic Analysis (BEA), U.S. Department of Commerce, as of 2022. Izoh: 2022 yil bahosi qisman Iqtisodiy tahlillar byurosi (BEA) ma'lumotlaridan foydalangan holda Alger tomonidan aniqlangan. Jadvaldagi ma'lumotlar inflyatsiyani hisobga olgan holda moslashtirilgan, ya'ni pul, tovarlar yoki xizmatlarning vaqt o'tishi bilan qiymatini o'lchash usuli bo'lib, inflyatsiya ta'sirini inobatga oladi.



Ushbu 2-rasm 2005-yildan 2022-yilgacha AQSh iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi qanday o'rganini ko'rsatadi. 2005-yilda raqamli sektor YAIMning atigi 11 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich qariyb 19 foizga yetdi (alger.com). Raqamli infratuzilma, dasturiy ta'minot va elektron tijoratdagi innovatsiyalar tufayli raqamli iqtisodiyotning yillik o'sish sur'ati umumiy YAIM o'sishidan 3 barobar yuqori bo'ldi.

O'zbekistonda esa aholi va xodimlarning raqamli savodxonlik darajasi hozircha pastligicha qolmoqda (faqat 20 foiz aholi kompyuterda elementar ishlay oladi [14]). O'zbekiston mehnat bozorida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish uchun, eng avvalo, kadrlar malakasini oshirish va ta'lim dasturlarini zamonaviy AKT ko'nikmalari bilan boyitish zarur. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi e'tiborga molikdir. Mazkur mamlakatda hukumat darajasida doimiy ravishda ishchi kuchini qayta o'qitish va malakasini oshirishga qaratilgan tizimli dasturlar yo'lga qo'yilgan. Masalan, Janubiy Koreyada "Digital New Deal" dasturi doirasida minglab fuqarolar sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili kabi yo'nalishlar bo'yicha qayta tayyorgarlikdan o'tkazilmoqda. Germaniyada esa an'anaviy kuchli kasbhunar (dualogik) ta'lim tizimi zamonaviy raqamli asr talablariga moslashtirilmoqda. Xususan, "Apprentice for Industry 4.0" dasturi orqali yosh mutaxassislar zavod va fabrikalarda raqamli texnologiyalarni boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallamoqda.

Ushbu dastur sanoatga endi kirib kelayotgan IoT, avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini o'zlashtirish uchun zarur tayyorgarlikni ta'minlaydi. Shunday qilib, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida mehnat bozorining talablariga mos keladigan malakali kadrlar tayyorlash eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Sanoat va xizmatlar tarmoqlarida ish o'rinlarining o'zgarishi. Raqamli texnologiyalar joriy etilishi natijasida ayrim an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishi – bu global hodisa. Muhimi, bu jarayonni to'xtatish emas, balki unga moslashishdir. Jahon Iqtisodiy Forumi va boshqa tadqiqotlar xulosasiga ko'ra, mashinalar yaxshi bajaradigan ish o'rinlarini "asrab qolish"ga intilish samarasiz; buning o'rniga, ishchi kuchini yangi kasblar va vazifalarga moslab tayyorlash lozim [1]. Masalan, AQSh va Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishning avtomatlashuvi natijasida zavodlarda montajchi, nazoratchi kabi ishlar soni kamaygan bo'lsa-da, robototexnika muhandisi, dasturchi, texnik nazoratchi kabi yuqori malakali ishlar soni oshdi. AQShdagi yirik ishlab chiqarish korxonalaridan biri-Flex kompaniyasi-misolida ko'rilsa, zavodlarda robotlar joriy etilgach, oddiy ishchilar ommaviy ishdan bo'shatilmagan, aksincha ularning ko'pchiligi liniyani tekshiruvchi auditorlar yoki robot texniklariga aylantirilgan. Bu misol raqamli transformatsiya sharoitida kadrlarni ichki qayta o'qitish va yangi rollarga moslashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot hajmi bo'yicha dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblangan AQShda (uning raqamli iqtisodiyotdagi ulushi YAIMning taxminan 18-19 foizini tashkil etadi [18]) mehnat bozori yuqori darajada raqamlashtirilgan. Yuqori texnologiyali ish o'rinlari sezilarli darajada ko'paygan bo'lsa-da, ayni vaqtda ish o'rinlari qutblashuvi (polarizatsiya) holati kuzatilmoqda. Bunda yuqori malakali hamda past malakali ishlarning o'sishi bilan birga, o'rta malakali-ya'ni rutin ishlab chiqarish yoki ofis ishlarining-qisqarish tendensiyasi yuzaga kelgan. Ushbu muvozanatsizlikni yumshatish maqsadida AQShdagi yirik korxonalar va davlat ilmiy muassasalari hamkorligida ishchi kuchini qayta tayyorlash dasturlari faol amalga oshirilmoqda. Jumladan, kod yozish ko'nikmalarini o'rgatuvchi qisqa muddatli kurslar, "bootcamp"lar va onlayn sertifikatlash dasturlari keng targ'ib etilmoqda. Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali mustaqil ishlash (freelancing) AQSh mehnat bozorining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Davlat ushbu segmentda faoliyat yuritayotgan ishchilarning huquqlarini himoya qilish-xususan, sog'liqni saqlash sug'urtasi, pensiya jamg'armalari, va boshqa ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash-yo'nalishida ham tegishli siyosat olib bormoqda.

O'zbekiston xorijiy tajribalar asosida quyidagi yo'nalishlarda amaliy chora-tadbirlarni qo'llashi mumkin:

Raqamli transformatsiyani amalga oshirishda mehnat bozoriga salbiy ta'sirni minimallashtirish uchun ilgari rejalashtirilgan moslashuv choralari ishlab chiqish (Janubiy Koreya va Germaniya tajribasi);

Ta'lim va malaka oshirish tizimini yangi texnologiyalar talablari asosida isloh qilish (barcha to'rtta mamlakat -AQSh, Xitoy, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi);

Raqamli iqtisodiyotda inklyuzivlik va hududiy tenglikni ta'minlash maqsadida maxsus dasturlar ishlab chiqish (AQSh va Xitoy tajribasi);

Raqamli tadbirkorlik va innovatsion ekotizimni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish (AQSh va Xitoydagi startap ekotizimlari misolida).

Yuqoridagi muhokamalar asosida quyidagi asosiy xulosani bildirish mumkin: O'zbekiston mehnat bozori raqamli texnologiyalar ta'sirida qayta shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu jarayonda ijobiy natijalarga-yuqori malakali ish o'rinlarining ko'payishi, mehnat unumdorligining oshishi, yangi xizmat turlarining vujudga kelishi-erishish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasidan o'rganilgan asosda, mahalliy sharoitga mos innovatsion siyosat yuritilishi zarur. Aks holda, raqamli transformatsiya imkoniyatdan ko'ra xavfga aylanishi mumkin: malakasiz ishchi kuchining ishsizligi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga chiqishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois, keyingi bo'limda raqamli texnologiyalar asosida O'zbekiston mehnat bozorini takomillashtirish bo'yicha aniq xulosalar va takliflar bayon etiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini zamon talabiga moslashtirish:

Raqamli infratuzilma va hududlararo tenglikni ta'minlash; Internet va raqamli xizmatlar barcha uchun mavjud bo'lgandagina, raqamli iqtisodiyot to'liq potensialini namoyon eta oladi.

Ishchilarning huquqlarini himoya qilish va moslashuvchan mehnat munosabatlarini rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar yangi ish shakllarini (masofaviy ish, freelance, platformali ishlar) yaratgani sababli mehnat qonunchiligini ham moslashtirish talab etiladi.

Raqamli tadbirkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirish; Mehnat bozorida yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi ko'p jihatdan yangi bizneslar va innovatsion g'oyalarning ro'yobga chiqishiga bog'liq.

Raqamli texnologiyalar asosida mehnat bozorini takomillashtirish-bu uzluksiz va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki talab etiladi. O'zbekiston ushbu yo'nalishda ilk qadamlarini qo'ydi va bir qator salmoqli natijalarga erishmoqda. Xususan, AKT sohasining jadal rivojlanishi, IT-Parklar tashkil etilishi, shuningdek "Bir million dasturchi" kabi tashabbuslarning amalga oshirilishi bunga misol bo'la oladi. Kelgusida bu sa'y-harakatlarni izchil davom ettirish, shuningdek ilg'or xorijiy tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda tatbiq etish orqali raqamli davr talablariga javob beradigan barqaror, inklyuziv va raqobatbardosh mehnat bozorini shakllantirish mumkin bo'ladi. Raqamli transformatsiya jarayonida inson omili-ya'ni ishchi kuchining manfaatlari, kasbiy rivojlanishi va farovonligi-markaziy o'rinda turishi lozim. Faqat shundagina raqamli texnologiyalar haqiqiy ma'noda mehnat bozorini takomillashtirishga xizmat qiladi hamda mamlakatimizning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO'YXATI

1. Advaiti, R. (2022). Here's how automation and job creation can go hand in hand. World Economic Forum. <https://www.weforum.org/agenda/2022/05/>
2. Tan, J. (2023). South Korea embraces AI's transformation of labour market. HRM Asia. <https://hrmasia.com/south-korea-embraces-ai-transformation-of-labour-market>
3. Bahriddinov, V. (2020). Raqamli iqtisodiyot va uning mehnat bozoriga ta'siri. Toshkent: TDYU nashriyoti.
4. Mustafayev, N. (2021). Raqamli transformatsiya: iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi. "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" jurnali, №3.
5. Xodjayev, I. (2022). Mehnat bozorida raqamli texnologiyalarni qo'llash va uning samaradorligi. "Milliy iqtisodiyot" jurnali, №2.
6. Husanov, J., & Davlatov, A. (2020). Raqamli transformatsiya va mehnat resurslarining yangi shakllari. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.
7. Bazarov, F. (2021). Raqamli iqtisodiyotga o'tish: imkoniyatlar va cheklovlar. "Yosh iqtisodchilar" to'plami, №4.
8. Shodiyev, R. (2023). Raqamli ko'nikmalar va mehnat bozori: O'zbekiston tajribasi. "Ilm va taraqqiyot" jurnali, №1.
9. Akhmedov, S. (2022). Ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish. O'zbekiston Respublikasi Innovatsiyalar vazirligi nashri.
10. Soliyev, T., & Ergashev, M. (2021). Raqamli ta'lim va mehnat bozorining integratsiyasi. "Pedagogik innovatsiyalar" jurnali, №5.
11. Rakhmonov, U. (2020). Bandlik tizimida raqamli ish shakllari rivoji. "Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil" jurnali, №2.
12. Jumayev, Z. (2024). Mehnat resurslarini raqamli iqtisodiyotga tayyorlash: muammolar va yechimlar. Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyoti.
13. UNDP. (2025). Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence. BMT Taraqqiyot Dasturi hisobot, Toshkent. <https://www.undp.org>
14. OECD. (2023). Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. OECD Eurasia Competitiveness Programme, Parij. <https://www.oecd.org>
15. FRED-St. Louis Fed. (2023). Internet users for Uzbekistan (% of population). Federal Reserve Economic Data. <https://fred.stlouisfed.org>
16. International Federation of Robotics. (2024). Global Robotics Race: Korea, Singapore and Germany in the Lead. Press-reliz, IFR, Frankfurt. <https://www.ifr.org>
17. Brookings Institution. (2017). Digitalization and the American Workforce. Brookings Metropolitan Policy Program Report, Vashington. <https://www.brookings.edu>
18. Alger. (2023). On the Money: The Growing Role of Software in the U.S. Economy. Alger Funds. <https://www.alger.com/Pages/OnTheMoney.aspx?pageLabel=AOM321>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
